

BADIIY MATNDA KONNOTATIV MA‘NONING FONETIK USULLAR BILAN IFODALANISHI

Mo‘minova Yulduz Aminboyevna

Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti amaliy va gumanitar fanlar kafedrasida assistent o‘qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy matnda qo‘llanilgan konnotativ ma‘noning fonetik usullar bilan ifodalanishi: tovush o‘zgarishi, tovush orttirilishi, tovush tushish jarayonlar badiiy matnlardan to‘plangan misollar asosida o‘rganiladi.*

Annotation: *In this article, the phonetic expression of the connotative meaning used in the poetry: sound change, rising sound, and falling sound processes are studied on the basis of examples collected from poetic texts.*

Kalit so‘zlar: konnotativ ma‘no, bo‘yoqdorlik, fonetik usul, tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashish hodisalari, pragmatika, sema va sememia.

Key words: *connotative meaning, coloring, phonetic method, falling sound, rising sound, phenomena of sound exchange, pragmatics, seme and sememia.*

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik jarayonlarning o‘rni va ahamiyati katta. Badiiy matnda tasviriy vositalar emosional – ekspressivlikni ta‘minlaydi. Ayniqsa, she‘riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari oson va qulay idrok qilinadi. Chunki she‘riyatning nasriy asarlardan farqi

o‘ziga xos xususiyatlari ohang, tasviriy vositalarning qo‘llanishi bilan ajralib turadi. She‘riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi.

Nasriy asarlarda fonetik vositalar yordamida ekspressivlikni oshirish uchun unli tovushlarni cho‘zib talaffuz qilish, undoshlarni qavatlashtirish, tovush orttirilishi, tovush tushishi, so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, tovushlarni takrorlash kabilardan kabilardan unumli foydalaniladi.

Badiiy asarlarda qahramonlarning ruhiy holatini ifodalash, ularning ichki kechinmalari: hayajoni, xursand va xafa bo‘lishini, hayratlanishi, norozilik, piching, kesatiq, yalinish, qo‘llab – quvatlash, taajjub, kinoya, ta‘kid kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar fonetik vositalardan unumli foydalanadilar. Bu esa badiiy matnning ta‘sirchanligini, bo‘yoqdorligini va o‘quvchiga ta‘sir kuchini oshiradi.

Nutqda tovush hamda ohanglarning ma‘lum yashirin maqsad bilan qo‘llanishi natijasida muallif munosabatining ifodalanishi fonopragmatik tahlil obekti sanaladi. Leksema semasida pragmatik semaning hosil

bo‘lishida fonetik jarayonlar: tovush o‘zgarishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi, tovush ikkilanishi hodisalari alohida ahamiyatga ega.

Tilshunos olim A. Abdullayev fonetik usul bilan ma‘no kuchaytirishning quyidagi usullarini ko‘rsatadi:

- 1) unli tovushlarni kuchli talaffuz qilish orqali (zarb urg‘usi)

2) unlilarni cho‘zib talaffuz qilish (kvantitativ urg‘u)

3) undoshlarni qavatlashtirish orqali (geminatsiya)

Nutq tovushlari vositasida turli his – tuyg‘ularni ifodalash mumkin. Masalan, badiiy matnda unlilarni birdan ortiq tarzda cho‘zib talaffuz qilish natijasida taajjublanish, qahramonning ruhiy holatini ochib berish kabi konnotativ ma‘noni ifodalash mumkin. A. Abdullayevning ta‘kidlashicha “unlilarni cho‘zib talaffuz qilish natijasida belgining meyordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalanadi” Masalan:

--- Hoy, Shayx o‘lgur, qayoqqa? – ayollardan biri uning yo‘lini to‘sdi. – U yerda qariyalar o‘tiradi.

--- Qoch! – dedi Shayx ko‘zini olaytirib. Keyin onamning xonasiga kirdi-yu, to‘satdan o‘zini yerga otdi.

--- Oyi,- dedi xirillab. – Oyi-i-i! (O‘.H “Dunyoning ishlari” , 27- b.). Sayx qo‘shni ayolning vafot etgan holatini ko‘rib “ oyi -i - i “ deb qattiq

qayg‘uga botish holatini unlilarni cho‘zish orqali ifodalagan.

Yugurib,Xo‘ja ikkalamiz o‘tirgan suv bo‘yidagi do‘nglikka bordim. Yo‘q, u yerda ham ko‘rinmaydi.

--- Xo‘ja-a-a! – dedim baqirib.

Oqshom zulmati bostirib kelayotgan jiydazor orasida “ a-a-a” degan sado keldi.(O‘.H “Dunyoning ishlari” ,133- b.). Badiiy matnda “ a “ unlisini cho‘zish orqali chaqirish, da‘vat qilish, so‘zlovchi tomonidan tinglovchi e‘tiborini jalb qilish kabi yozuvchi pragmatik semani ochib bergan.

Badiiy matnlarda undosh tovushlarning atayin qavatlab talaffuz qilish orqali ekspressivlik , bo‘yoqdorlik ifodalanadi. Badiiy matnda qahramonning ichki ruhiy holatini ifodalash : siqilish, hayratlanish, xursandchilik, xafa

bo‘lish holatlarini yozuvchi aynan kitobxonga yatkazish uchun matnda undosh tovushlarni birdan ortiq keltirish orqali: siqilish, taajjubga tushish kabi pragmatik ma‘noni ochib berishga harakat qiladi. Masalan:

--- Uff! Isib ketdim! – Oyim ko‘pikli qo‘lini sidirib , yoqasi bo‘g‘iq to‘rko‘ylagini yechdi-da, chekkaga tashladi.(O‘sha asar, 107 b.)

--- Mayli, topilib qolar, – dedi u sekingina. – Shu yerga tushgan bo‘lsa, qayoqqa ketardi.

--- Hmm! – Ammam shunday tahdidli bosh chayqadiki, qorong‘i bo‘lsa ham qoshi chimirilib ketganini aniq ko‘rdim. (O‘sha asar, 109- b).

Dutor yerga urildi... qars etdi. Tamom! Kuy ham, qo‘shiq ham tindi – qoldi.

--- Sindi! – dedim ovozim titrab.

Vali yugurib tepamga keldi : - Voy – y-y! Endi dadang o‘ldiradi! (O‘sha asar, 128- b.). Yozuvchi undoshni takror qo‘llash orqali hayratlanish kabi bo‘yoqdorlikni ifodalagan.

Leksema semasida pragmatik semaning hosil bo‘lishida fonetik jarayonlar:

tovush o‘zgarishi , tovush orttirilishi, tovush tushishi, tovush ikkilanishi hodisalari alohida ahamiyatga ega.

Nutqda tovush tushirilishi salbiy va ijobiy ma’no yuklashi mumkin. Bunday paytda nutqiy vaziyat bilan aloqador bo‘lib, nutq subektiga qarab pragmatik ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

Naim sartarosh dunyoning adolatsizligidan tutaqib ketgandek jahl bilan nosini tupurdi, silliq iyagini silab qo‘ydi.

----- Bular davlatga xizmat qilgan bo‘lsa, bizziyam o‘tqazib qo‘ygan joyimiz bor. Bular Maskovga borgan bo‘lsa, manam borganman. Ularni ko‘tar - ko‘tar qilasanlar-u mani yozmaysanlar, shunaqami? Mani suyanchig‘im yo‘q-da, a? (O‘sha asar, 102 - b.)

Bu matnda Maskova so‘zidagi “a” tovushini aynan tushirilishi va bizziyam so‘zidagi “z” undoshining orttirilishi dialektlarda ko‘p uchrashi tabiiy holdir. Lekin bu tovushlarning tushirilishi, orttirilishi yozuvchining maqsadini ochib berishga yordam beradi. Bu esa qahramon nutqi orqali

o‘zini katta tutish, mensimaslik, qilgan ishini ro‘kach qilish kabi pragmatik ma’no ochib berilgan.

Tovushlarning almashinishi orqali ham pragmatik ma’no ifodalash mumkin. Masalan: --- Ammam oyimning oltin baldoqi yo‘qligini bilib ko‘ziga tikilib so‘radi. - Kim kirgan edi oldingizga ?

--- Hech kim. - Oyim bir zum talmovsirab turdi- da, sekin qo‘shib qo‘ydi. - Hali peshinda Sharopat opa keluvdi. Shu...

--- Sharapatmi ? - Ammam tushunarli degandek istehzo bilan labini burdi. - Bo‘pti, omin Oblohu akbar ! (O‘sha asar, 109- b.) Matnda bu usuldan qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og‘zaki - jonli nutqqa yaqinlashtirish va ayrim o‘rinlarda qahramonning qo‘rqishi, kuchli hayajonga tushishi bilan tovushlarning almashinishi orqali ochib berilgan.

Nutq tovushlarining orttirilishi pragmatik ma’noning yuzaga kelishi fonostilistik sath bilan bog‘liq bo‘ladi. “Alohida til bosqichi bo‘lgan lingvostilistika o‘zining aniq birliklariga ega bo‘lmay, til birliklariga u yoki bu ekspressiv ma’no berish bilan chegaralanadi. Tildagi biror stilistik xususiyat leksik yoki grammatik jihatdan to‘la namoyon bo‘lmasa, uni fonetik jihatdan shakillantirish natijasida to‘ldiriladi” Masalan:

Oybaldoq shol ro‘pol tagidan ham yaraqlab ko‘rinib turar, kelinning husniga husn qo‘shib yuborgandek edi. Chekka - chekkadagi xotinlarning hayratli xitobi eshitildi:

--- Vuy - y - y - y ! (O‘sha asar, 119- b.)

Fonetik vositalardan tovushni ikkilantirish orqali ham ekspressivlikni, bo‘yoqdorlikni ifodalash mumkin.

“Obbo, san-ey, keganingga shuncha bo‘bdi - yu, nega hovliga o‘tmading, - deydi. - Kechqurun biznikiga o‘tmasang, qattiq xafa bo‘laman, yangangga norin buyurib kelganman”, - deydi. (O‘sha asar, 104- b.) Bu matnda taajjub, ta’kid, ma’noni kuchaytirish, hayratlanish kabi pragmatik ma’nolar yuzaga chiqadi. “Qattiq xafa bo‘laman” birikmasida “qattiq” so‘zi fonetik usul bilan ifodalanib pragmatik jihatdan ma’noni kuchaytirib ifodalangan. Lekin leksik jihatdan metaforik ma’no ko‘chishini kuzatish ham mumkin. Ikkalasi birgalikda qo

‘llangan holda kitobxonning diqqatini o‘ziga tortishi bilan birga kuchli bo‘yoqdorlikni ham ifodalagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mahoratli ijodkor O‘tkir Hoshimov fonetik vositalardan ekspressivlikni oshirish maqsadda foydalangan. Badiiy asarda obrazlilikni, unlilarni cho‘zish, undoshlarni takror qo‘l-lash, tovush tushishi, tovush almashishi kabi fonetik vositalardan asarning badiiyligini oshirish, bo‘yoqdorlikni jarangdor bo‘lishiga erishgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Hakimov “ O‘zbek pragmalingsvistikasi asoslari” - Toshkent, Akademi-nashr, 2013.
2. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - Toshkent, 1992.
3. O‘tkir Hoshimov “ Dunyoning ishlari” . Toshkent, “ Ilm- ziyo – zakovat” 2019.
4. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent, “Fan”, 1963.